



O'ZBEK SHEVALARIDA SON SO'Z TURKUMINING FONETIK TAHLILI (SURXONDARYO VOHASI MISOLIDA)

Komila Bahromova

Termiz davlat universiteti Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

Annotatsiya: *Ushbu tezisda Surxondaryo shevalarida son so'z turkumining fonetik tahlili haqida so'z yuritilgan. Qipchoq lahjasiga kiruvchi ayrim hududlar (Jarqo'rg'on, Sho'rchi, Angor, Boysun, Qumqurg'on) shevasidagi fonetik qonunlar va jarayonlar, jumladan, assimilatsiya, singarmonizm, diftong, prokopa, apakopa, degimenatsiya va shu kabi hodisalar tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Sheva, son, turkum, fonetik, diftong, qipchoq, prokopa, apakopa, singarmonizm.*

O'zbek tili turkiy tillar ichida ko'p lahjaliligi bilan ajralib turadigan, shevalari bir-biridan keskin farqlanadigan tillardan biridir. Bugungi kunda shevashunoslikda e'tibor kuchayib bormoqda. E.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V. Reshetov va shu kabi olimlarning o'zbek shevasini o'rganishi natijasida bu shevalarning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik xususiyatlari namoyon bo'ladi. O'zbek tili qarluq, qipchoq va o'g'uz lahjalariga mansub shakllarga ega bo'lib, asosan qipchoq lahjasiga kiruvchi Surxondaryo shevasi boshqa shevalardan fonetik, leksik, morfologik jihatlariga ko'ra farq giladi.

O'zbek shevalarining murakkab tarkibga egaligi, avvalo, ularning fonetik jihatdan rang-barangligi tufaylidir. O'zbek shevalari unli va undoshlar miqdori, sifati, fonetik qonunlar, fonetik jarayonlarning o'ziga xosligi jihatidan o'zaro farqlanadi va, aksincha, ayrim jihatlariga ko'ra ular bir-biri bilan o'xshashlikka ham ega. "O'zbek tilida so'zlashuvchi kollektiv joylashgan territoriyaga nazar tashlab, shevalar bo'yicha fonemalarning munosabatini son jihatidan qarab chiqsak, bir qancha shevalarning yagona bir markazga – adabiy talaffuz normalariga asos bo'ladigan markazga qarab yo'nalishini ko'ramiz¹".

Bu jarayonlar o'zbek tili morfologiyasidagi barcha so'z turkumlarida kuzatiladi. Xususan, birgina son so'z turkumi misolida olib qaraydigan bo'lsak "shevalarda sonlarning nomlanishi adabiy til bilan aynanligi ham, fonetik farqlari ham mavjud²".

Surxon shevalari misolida sonlarda fonetik jarayonlarni ko'rib o'tamiz.

Assimilatsiya- Odatda assimilatsiya unli va undoshlar tizimida baravar qayd qilinadi, lekin ko'proq undoshlar bilan bog'liq fonetik qonundir. Shevada bu hodisaga istisno holatlar ham mavjud. Masalan: bitta-bitta-{birtä}

¹ Reshetov V.V. Uzbekskiy yazik. Fonetika, Toshkent.:1959. B.149.

² S.Ashirboyev. O'zbek dialektologiyasi. Nodirabegim. T.: 2021. B.68. B.lar 175.



Singarmonizm- lotincha unilarning uyg'unlashuvi demakdir. Taniqli tilshunos I.A.Bogorotskiy fikriga ko'ra singarmonizm unilar uyg'unligi va qisman undoshlarga ham taalluqlidir. Misol: Sakson-saksan-{säksän}, olti-{älti}

Singormonizmli shevalarda diftong hodisasi ko'p uchraydi.

Diftong- bir tovushda ikkinchi bir tovushning ekskursiyasining yoki rekursiyasining qatnashishi. Son so'z turkumi doirasida unli bilan boshlangan va o'nlik sonlarda ko'p uchraydi. Masalan: o'n ikki- vo'n ekki-{vön ekki}, ikki-jekki-{jekki}, ellik-jellik-{jellik}, uch-wuch-{wuč}.

Geminatsiya- tovush takrorlanishi, uning aksi bo'lgan degiminatsiyani hodisasini ham uchramiz. Masalan:yetti-{jeti}, sakkiz-{säkiz}, to'qqiz-{toqiz}.

Prokopa- undoshlarning so'z boshida tushishi. Masalan:yigirma-{igirmä}

Apakopa- undoshlarning so'z oxirida tushishi. Masalan:qirq bir-{qir bir}, qirq besh-{qir beš}

Shuningdek, shevalarda sonning ma'noviy turlarini hosil qiluvchi qo'shimchalar qo'shilishi natijasida ham fonetik jarayonlar kuzatilishini ko'rishimiz mumkin. Masalan: taqsim son hosil qiluvchi –tadan qo'shimchasini "ikki" soniga qo'shilganda {jektadan} shaklida bo'lib sinkopa hodisasini va diftong jarayonini ko'ramiz, yoki "olti" soniga –ov jamlovchi qo'shimchasi qo'shilganda ham shu hodisalar kuzatiladi {wältav} shaklida. Tartib sonlar hosil qiluvchi –nči, -inči, -ünčü, va -inzi qo'shimchalari qo'shilishi natijasida o'zakda tovush tushishi, tovush ortishi, tovush almashishi kuzatiladi. Masalan:{jekkinči}, {üčünčü}, {tordinzi}.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, o'zbek shevalaridan Surxondaryo viloyatidagi shevalardan olingan son so'z turkumiga tegishli bo'lgan birliklar fonetik jihatdan tahlil qilinganda , diftonglashuv hodisasi boshqa fonetik hodisalarga nisbatan ko'proq uchrashini yuqoridagi misollar orqali ko'rib o'tishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. –T.:2021. B. 68. B. 175.
2. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. B. 27.
3. Rahimov S. Surxondaryo viloyati o'zbek shevalari. –Toshkent: Fan, 1985. B. 20-70.
4. Xolova M. O'zbek tilining dialektal korpusini tuzish amaliyoti. –Termiz. 2023. B. 252. B. 358.
5. O'zbek xalq shevalari lug'ati. –Toshkent: Fan, 1991. B.3-407.
6. Fozilov E. O'zbek tilining tarixiy morfologiyasi. –T.: Fan, 1965 B. 68.
7. Enazarov T., Karimjonova V. va boshqalar O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2012.